

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15003473>

VATANPARVARLIK - MA'NAVIY BARKAMOLLIK MEZONI SIFATIDA

Xolmirzaev Nodirjon Nizomjonovich

Qo‘qon universiteti v.b. professori, falsafa fanlari doktori (DSc)

Ajdodlarimiz azaldan yosh avlodni ma’naviy barkamol inson sifatida ulg‘ayishi Vatanini sevishi xamda ardoqlashi uchun ta’lim, tarbiya berib kelgan. Bobolarimiz yoshlarda shon-shuxrat, mansab ortidan quvmaslik, moddiy qiyinchiliklarga duch kelganda qaddi bukilmaslik, tuxmatu-fitnalarga uchmaslik har qanday shum taqdir va qismat oldida bo‘yin egmaslik, Vatan xizmati yo‘lida doim shay turish kabi xislatlarni shakllantirishga katta e’tibor qaratganlar. Bunday xislatlar yoshlarda ma’naviy barkamollikning asosiy belgilardan biri vatanparlik tuyg‘ularini shakllanishiga imkon bergan. Ma’naviy barkamol inson - fidoyilik, jasorat, mardlik, o‘z xalqini sevish, Vatanni qadrlash, ajdodlaridan faxrlanish kabi olijanob fazilatlari bilan ajralib turadi. Bu omillar xalqimizga xos bo‘lgan vatanparvarlikning eng muhim belgilaridir. Ajdodlarimizda vatanparvarlik, insonparvarlik yurt taqdiriga daxldorlik tuyg‘larini yuqorida darajada bo‘lganligi bilan faxrlansak va ularning bajargan ishlari to‘g‘risida ko‘plab asarlar yozsak bo‘ladi. Ular o‘z yurtlarini sevishgan, ardoqlashgan, kerak bo‘lsa jonlarini fido qilishgan. Shu sabab bu muqaddas Turonzamin barcha sir-sinoatlari va go‘zalligi va ma’naviy boyliklari bilan bizgacha yetib keldi. Ammo ayni paytda xalqimiz orasida vatanparvarlik tuyg‘usini yanada rivojlantirish zarurati paydo bo‘ldi. Bunga esa sobiq ittifoq davrida olib borilgan mafkuraviy siyosat va ayni paytdagi erkin axborot oqimi sabab bo‘ldi deyishimiz mumkin. Hozirgi vaqtda, globallashuv keltirib chiqargan yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga to‘sinq bo‘ladigan bir qator omillar ham borki ularni bartaraft etish zarur.

Ta'kidlash joiz yoshlarda vatanparlik tuyg'usini shakllantirish bugungi kunda xar qachongidan ham dolzarb vazifaga aylandi. Zero bugungi globallashuv jarayoni o'z xalqining tarixini, milliy qadriyatlarini, tilini, istiqbol manfaatlarini bilmagan, qadrlamagan, milliy mansubligini unutgan, o'z millatining istiqboli uchun qayg'urmaydigan, kurashmaydigan zombilarni tarbiyalashni o'zining birinchi galdagi vazifasiga aylantirgan. Shu tarzda tarbiyalangan kishilarda milliy g'urur xam, millat bilan faxrlanish xam, millatparvarlik xam bo'lmaydi. Har qanday yomonlikni kutish mumkin bo'lgan bunday kishilarni ma'naviy barkamol inson yoki vatanparvar kishi deya olmaymiz. Shunday ekan vatanparvar yoshlarni tarbiyalash muhim vazifamizdir. Hozirgi vaqtida vatanparvar yoshlarni tarbiyalashda ota bobolarmizdan qolgan ma'naviy meros va ularning purma'no o'gitlari katta ahamiyatga ega. Ota-bobolarmizga xos bo'lgan vatanparlikning namunalarini o'rganish va ularni bugungi kunimiz uchun joriy etish yaxshi samara beradi.

Fikrimizcha xalqimizga xos vatanparlikning tarkibiy qismlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- oila a'zolari, qo'ni-qo'shnilar, maxalla-ko'yi, qishloqdoshlari va butun mamlakat xalq farovonligi xaqida qayg'urish;
- ota-bobolardan, ajdodlardan yodgor bo'lib qolgan madaniy merosni qadrlash;
- milliy qadriyatlarni e'zozlash va ularga sodiq bo'lib qolish;
- vatanni ximoya qilish, boshqacha aytganda, xarbiy-vatanparvarlik tuyg'ulari bilan yashash va boshqalar.

Shu kabi tuyg'ularni yoshlarimizda shakllantira olsak ma'naviy barkamol ertangi kunimizni, buyuk kelajagimizni barpo etadigan yoshlarni tarbiyalay olamiz.

Ma'naviy barkamollikning qirralari va mezonlari qatoriga vatanparvarlikning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadigan milliy g'urur xamda iftixor tuyg'ulari ham kiradi. Milliy g'urur o'z xalqining bir necha ming yillar davomida yaratib kelgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklari, tarixiy merosi, urf-odatlari, an'analari, odob-axloqi, turmush tarzi, yuksak ma'naviyati, barcha tarixiy yutuqlari va saboqlariga cheksiz xurmat va e'zoz bilan munosabatda bo'lish, avaylab-asrashdir.

O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida har bir kishida milliy g‘urur va milliy iftixor bo‘lmas ekan, fidokorlik, vatanparvarlik, millatparvarlik kabi xislatlar rivojlanishiga imkon bermasligi mumkin. Milliy g‘urur va iftixor xalqimizning ma’naviy quroliga aylanishi uchun uning quyidagi muhim belgilarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish o‘rnlidir:

- Mustaqillikni asrab avaylash, islohotlarga befarq bo‘lmaslik;
- Vatan taqdiri va istiqlolni to‘g‘risida qayg‘urish;
- Buyuk ajdodlarga munosib voris bo‘lishga intilish;
- Vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik xissini rivojlantirish;
- xalq, yurt qadr-qimmati, or-nomusini anglash va buni himoya qilish va boshqalar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki bizning ota-bobolarimiz, xalqimiz qadimdan or-nomusli, oriyatli bo‘lib kelgan, shuning uchun ular o‘z yurtini, uning tuprog‘ini, onalari va farzandlarini boshqa bosqinchilar tomonidan toptalishini o‘zları uchun or deb bilganlar.

Xulosa sifatida aytish mumkinki fuqarolarimizda, xususan yoshlarda Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirishda, ularning iymon- e’tiqodini mustahkamlashda buyuk ajdodlarimizning iymon va e’tiqod butunligi uchun olib borgan qat’iy harakatlari va amaliy faoliyatları hamda tajribalari foydalanish yaxshi samara beradi. Bugungi g‘oyaviy, mafkuraviy kurash davrida ba’zi fuqarolarimiz, jumladan, ayrim yoshlarimiz dunyoqarashidagi muayyan bo‘shliqlarni to‘ldirishda ajdodlarimizning ma’naviy merosidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ibroximov A., Sultonov X., Jo‘raev N. Vatan tuyg‘usi. T., 1996 y.
2. Holmirzaev, N. N. "Eastern and western experience of labor culture." *Mировая наука* 4 (25) (2019): 51-52.
3. Kholmirzaev, Nodirjon Nizomjonovich. "Labor creative ability of integration of interests of personality and society." *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology* 1.8 (2019): 217-224.
4. Holmirzaev, Nodir. "Socio-philosophical factors of increasing social activity of student-youth." *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology* 1.6 (2019): 250-254.
5. Kholmirzaev, Nodirjon Nizomjonovich. "Theoretical basis of improving social activity of youth." *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology* 2.3 (2020): 260-263.